

**ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA KINOYA VA TAG MA'NONI
IFODALOVCHI BIRLIKLAR
(“Kartina”, “Ko‘k konvert” va “Kampirlar sim qoqdi” hikoyalari misolida)**

Nartosheva Mukaddas Voxid qizi,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li,
ilmiy rahbar, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti
nartoshevamukaddas@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslik sohasida qo‘llaniladigan kinoya va tag ma‘no tushunchalari tahlil ostiga olindi. O‘zbek tilining so‘zlashuv uslubida keng qo‘llaniladigan kinoya va tag ma‘noni bildiruvchi lingvistik birliklar badiiy uslubga xos janrlarda ham o‘z ifodasini topadi. Badiiy asarning salmog‘ini, ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan bunday birliklar mashhur yozuvchimiz Abdulla Qahhor hikoyalari matnida qo‘llanilganligi ko‘rsatib o‘tildi.

Kalit so‘zlar. A.Qahhor, hikoyalar, kinoya, tag ma‘no, kesatiq, “Kartina”, satira, tilshunoslik sohasi, ko‘chma ma‘no.

**ABDULLA QAHHOR’UN HIKAYELERINDE IRONI VE
GIZLI ANLAMI IFADE EDEN BIRIMLER
(“Tablo”, “Mavi zarf” va “Yaşlı kadınlar tel çaldı” hikayeleri örneğinde)**

Nartoşeva Mukaddas Vohid kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi
Yusupov Sardor Şodi oğlu,
bilimsel danışman, Özbek dili ve edebiyatı anabilim dalı asistanı

Özet. Bu makalede, dilbilim alanında kullanılan ironi ve gizli anlam kavramları incelenmiştir. Özbekçede yaygın olarak kullanılan bu dilsel birimlerin edebi üslupla yazılmış eserlerde de yer aldığı gösterilmiştir. Edebi eserin etkileyciliğini artıran bu birimlerin, ünlü yazarımız Abdulla Qahhor’un hikayelerinde nasıl kullanıldığına dair örnekler verilmiştir.

Anahtar kelimeler. A.Qahhor, hikayeler, ironi, gizli anlam, iğneleme, “Tablo”, hiciv, dilbilim, mecaz anlam

**ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ИРОНИЮ И СКРЫТЫЙ СМЫСЛ
В РАССКАЗАХ АБДУЛЛЫ КАХХОРА
(На примере рассказов “Картина”, “Голубой конверт” и
“Старушки донёсшие наверх”)**

Нартошева Мукаддас Вохид кызы,
студентка Узбекско-Финского педагогического института
Юсупов Сардор Шоди угли,

научный руководитель, ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятия иронии и скрытого смысла, используемые в лингвистике. Показано, что эти лингвистические единицы, широко используемые в разговорной речи, находят свое отражение и в художественных жанрах. Рассматриваются примеры использования таких единиц в рассказах известного узбекского писателя Абдуллы Каххора.

Ключевые слова. А.Каххор, рассказы, ирония, скрытый смысл, насмешка, “Картина”, сатира, лингвистика, переносное значение.

UNITS EXPRESSING IRONY AND IMPLICIT MEANING IN
THE STORIES OF ABDULLA QAHHOR
(Through the stories "The painting", "The blue envelope",
and "The old women who brought it upstairs")

*Nartosheva Mukaddas Vohid qizi,
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
student in Uzbek Language and Literature
Yusupov Sardor Shodi ogli,*

scientific advisor, assistant at the Department of uzbek language and literature

Abstract. *This article analyzes the concepts of irony and implicit meaning used in linguistics. It demonstrates how these linguistic units, which are commonly used in colloquial Uzbek, also find expression in literary genres. The study provides examples of how such units are applied in the texts of the renowned Uzbek writer Abdulla Qahhor's stories.*

Keywords. *A.Qahhor, stories, irony, implicit meaning, sarcasm, "The Painting", satire, linguistics, figurative meaning*

Tilshunoslik nazariy bilim bosqichiga ko'tarilgan hozirgi davrda har qanday til hodisalari o'zaro bog'liqlikda va sistemaviy munosabatdorlikda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, hodisalarni til va nutq bosqichida o'zaro aloqadorlikda tahlil qilish kuchaydi. Natijada til birliklari o'rtasidagi munosabatlarga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, badiiy asarlar orqali tag ma'no va kinoyaga oid birliklar topilib, tahlil etila boshladi.

So'z ma'nosini aks ma'noda qo'llash jarayoni kinoya deb yuritiladi. Kinoya orqali kesatiq, ta'ma, taajjub kabi ifodalar anglashiladi. Yozuvda kinoyani ifodalash uchun so'z qo'shtirnoqqa olinadi. Kinoya ko'pincha tanqidiy ruhga ega bo'lib, satira va hajv orqali ijtimoiy muammolarni ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Qahhor satirik hikoyalari bilan mashhur bo'lib, uning qahramonlari orqali jamiyatdagi illatlar kinoya yo'li bilan fosh etiladi. "Kartina" hikoyasi shular jumlasidandir. "Paxtakor" mahallasiga intervyu olish maqsadida kelgan shoir va rejissyor orqali hikoya tafsilotlari yoritib berilgan. Ularga xalq tomonidan "akademiklar" kinoyasi ishlatiladi. Chunki qishloqqa shu paytgacha hali bunday kishilar kelmagan, birinchi marotaba ularni ko'rgan xalq "akademik" so'zini ishlatishini esa yozuvchi kesatiq ma'noda aks ettirgan [1, 180 b.]. Hattoki, shoir va rejissyorlarning qishloqqa kelishi ham kinoya tarzida, ajoyib bir voqea sifatida ifodalangan. "Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada" jumlasida axborot temasi "shaxmat" bo'lganligi kontekstdan ma'lum. Shuning uchun bu gap, "shaxmat o'yinda instruktorimizdan qo'lim baland keldi" ma'nosiga ega.

Kinoya bilan bir qatorda tag ma'noni ham A.Qahhor hikoyalari misolida tahlil qilamiz.

Tag ma'no – ifodalanayotgan gapning ko'chma ma'nosi. Ya'ni ikki shaxs uchun tushunarli ma'no. [2, 312 b.] "O'g'ri" hikoyasidagi "kichkinagina" shart – tag ma'nodir. Bu yerda "kichkina" so'zi orqali katta shart ifodalanyapti.

"Rais o'sha kuni tumanda birinchi bo'lib, yigirma besh kilo pilla topshirdi va kampirlarga bergan va'dasiga muvofiq Toshkentga "sim qoqdi".

Ushbu jumlar orqali rais kampirlar haqida Toshkent radiosiga xabar bergan va ertasiga ular haqida radiodan butun qishloq xabardor bo'lishi tag ma'no sifatida qo'llanilgan.

"Kampirlar sim qoqdi" hikoyasida kampirlarga "nozanin", "havaskorlar" kinoyalari ishlatilgan.

"Ko'k konvert" hikoyasiga to'xtaladigan bo'lsak: "O'rtoq askar! Ro'molcha sizga omonat, urushdan keyin so'rab olaman. Latofatxon G'ulomovna". Ko'k konvert ichiga solingan bu xat, ya'ni ro'molchan "urushdan keyin so'rab olaman" so'zi orqali-fashistlarni yo'q qilmaguncha qaytib kelma ma'nosi ifodalangan.

Biz tag manoni ikki kishi uchun tushunarli bo'lgan ko'chma ma'noligini aytib o'tdik. Aynan hozir tahlil qilgan "Ko'k konvert" hikoyasining oxiri ham mana shunday biz ma'nosini tushunishimiz qiyin bo'lgan tag ma'no bilan yakunlangan: "Harakatdagi armiya. PP-19640-B, o'ntadan ortiq yaradorni jang maydonidan olib chiqqan bo'lsa, qoraqosh, quralayko'z, Latofatxon G'ulomovnaga tegsin". Tag ma'no ko'pincha propozitsiya vositasida bayon qilinib, faqat ba'zi holatlardagina propozitsiyadan keyin muallif izohi sifatida oshkora verbal bayonga ega bo'ladi [3, 109 b.]. Masalan, Anchadan keyin Qalandarov xuddi o'ziga gapirganday dedi-kolxozda ayshingizni qilib yuraverasiz. Partiya tashkilotining sekretariga ish yo'q deyish mumkin. Paxta hosili yuz. Pilla yuz. Oqsagan tarmog'imiz yo'q deyish mumkin. O'zingiz ham bilsangiz kerak. Saida nima deyarini bilmay qoldi. Qalandarovning bu gaplaridan: sen emas, sendan durustroq sekretarga ham muhtoj emasman degan ma'no chiqar edi. Ko'p hollarda so'zlovchi o'zi uchun muhim bo'lgan axborot ko'rinishlaridan birini oshkora bayon qilishni istamaganligi uchun uni matn ichiga tag ma'no sifatida johlashtiradi. Metaforik tagma'noning matndagi ifodasi so'zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog'liq bo'lib, fikrning ta'sir etish darajasini kuchaytiradi. Tinglovchining histuyg'usiga ta'sir etish va yangi nutq vaziyatini yuzaga chiqarish (perlokutiv aktlar)ning boshlang'ich nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan: Saida bir lahza o'ylanib qolganidan keyin miyig'ida kulib: Dunyoda bunaqa jonivorlar ko'p, Arslonbek aka, – dedi, xo'roz ham: (Men qichqirmasam, tong otmaydi, – deb o'ylar ekan... (A.Qahhor)

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, kinoya va tag ma'no muloqotning muhim unsurlari bo'lib, ular bevosita aytilmagan, ammo tushunarli bo'lgan mazmunni ifodalaydi. Kinoya orqali so'zlovchi o'z fikrini bilvosita, ko'pincha qarama-qarshi yoki o'tkir ifoda shaklida yetkazadi, bu esa hazil, tanqid yoki satira tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Tag ma'no esa, gapning chuqur ma'nosini tushunish uchun kontekst va nutqiy vaziyatni hisobga olishni talab qiladi. Ushbu usullar muloqotga ohang, emotsional ta'sir va noziklik baxsh etadi hamda til boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. 476 b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013, 403 b.
3. Qahhor A. Anor. – Toshkent, 2024, 126 b.
4. zyouz.com kutubxonasi.